

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“BOBO” INDIKATORLI NEKROTOPONIMLARNING BA’ZI SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Yusupov San’at Shuxratovich

*Nukus DPI Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrasи o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi mavjud nekrotoponimlar tarkibida salmoqli o‘rin egallagan “bobo” indikatorli nekrotoponimlarning ba’zi semantik xususiyatlari tahlilga tortilgan bo‘lib, ular tarkibidagi qismlarining ma’nolari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: toponim, nekrotoponim, nekronim, indikator, onomastik konversiya, grammatic tarkib, etimologiya, semantik tarkib.

Har bir toponimda insoniyat tarixinining kichik bir qirrasi, zarrasi o‘z aksini topadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimlari xalq tarixi, etnik tarkibi va taraqqiyoti, tarqalishi, turmush tarzi, kasb-kori, etnografiyasi kabilalar haqida yorqin ma’lumotlar beradi. Ular ichida nekrotoponimlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Tilshunoslikda nekronimlar deb ham ataladi, lekin uning qamrovi keng bo‘lib, qabristonlar, sarkofaglardagi, qabr toshlaridagi yozma ma’lumotlarni ham o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Biz faqat qabristonlar, muqaddas joylarning nomlarini lingvistik jihatdan o‘rganishni maqsad qilganligimiz bois, nekrotoponimlar terminidan foydalanishni ma’qul deb hisobladik. Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha tumanlaridagi nekrotoponimlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plashga harakat qildik. Chunki nekrotoponimlar toponimlar orasida o‘zining qadimiyligi va turg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu boy va o‘ziga xos lingvistik material Markaziy Osiyo toponimikasida hali yetarli o‘rganilgan emas, nekrotoponimlarning atoqli otlar tizimida tutgan o‘rnini belgilash, ularni morfologik va so‘z yasalishi onomastik konversiya usuli, grammatic tarkib va sintaktik usul jihatidan tahlil qilish, lug‘aviy-ma`noviy tasnifini yaratish, etimologiyasini ochish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish singari qator muammolar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Qozoq tilshunosi T.Januzaqov toponimikada semantik tasnif toponimlarning ma’nosini bilish, shu bilan birga, odamning ish-harakati, turmushi, ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq masalalarni aniqlash imkoniyatini berishini ta’kidlaydi [1: 175-176].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi obyektlarning katta qismi antroponimlar, ya’ni kishi ismlari va etnonimlar, ya’ni urug‘, qabila, millat nomlari bilan atalgan, bu hudud nekrotoponimlari uchun yana bir xarakterli jihatdir. Bunda mozor yoki qabristonlarning yaratilishiga asos bo‘lgan yoki shu yerga dafn qilingan odamlar nomlariga e’zozlab *ota*, so‘zi qo‘silib atoqli nomlar hosil qilingan [2: 87-91].

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shuningdek, “bobo” komponentli nekrotoponimlar ham ularning ichida salmoqli o‘rinni egallaydi. Mazkur so‘z izohli lug‘atda quyidagicha berilgan: “Aziz-avliyolar nomiga qo‘sib ishlatiladi. *Shayx Zayniddin bobo, Zangi bobo, Xizr bobo qo‘lingni baland qilsin.* U. Ismoilov, Saylanma.” [O‘TIL: 347]. Leksemaning to‘rtinchisi ma’nosи biz o‘rganayotgan sememasi hisoblanadi. Tilshunos A.Turobov Samarqand viloyatidagi oykonimlarni tahlil qilar ekan, **bobo** so‘zini qo‘sish orqali oykonimlar yasalishini ko‘rsatib o‘tadi [3:84].

Nekrotoponimlarning yasalish tamoyili ham so‘z yasalishining boshqa turlaridan farq qilmaydi. So‘z yasashdagi usul va vositalar toponimlarni yasashda ham ishtirok etadi, lekin bunda nekrotoponimlarning o‘ziga xos semantik va grammatic xususiyatlarini e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Leksemalar toponimga aylangach, ularda bir qator sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Respublikamiz nekrotoponimlarining derivatsion manzarasi rang-barang bo‘lib, unda so‘z yasalishining barcha usullarini uchratish mumkin.

Bobo leksemasi qo‘silib yasalgan nekrotoponimlar so‘z qo‘sish usuli (kompozitsiya yoki sintaktik usul) bilan hosil qilingan nekrotoponimlar hisoblanadi.

Tilshunos G.Kurbaniyazov Qoraqalpog‘istonidagi lisoniy vaziyatlarni tekshirar ekan, ularni ijtimoiy jihatdan ikkita sotsiolingvistik zonaga: 1) janubiy – o‘zbek tilli; 2) shimoliy – qoraqalpoq tilli zonalarga ajratadi. Muallif shunday yozadi: “Bu ikki sotsiolingvistik zona o‘z xarakteri, xalqining tarkibi, lisoniy-psixologik jihatlari, urfodatlari, tillar munosabati, milliy xususiyatlari, iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatları jihatidan bir-biridan farqlanib turadi”[4: 104]. Qoraqalpoq va o‘zbek tillarining farqli jihatlari mavjud, lekin **bobo** so‘zi ikki tilda ham bir xil ma’noda ishlatiladi. To‘plangan materiallardan kelib chiqib, **bobo** komponentli nekrotoponimlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Antroponimlar nomi bilan atalgan nekrotoponimlar.

A) bunda kishi nomi biror-bir boshqa grammatic shaklni qabul qilmaydi va faqat **bobo** indikatorini olib, nekrotoponim nomiga aylangan: *Ko‘ken bobo, Matniyoz bobo, Bobo Rustam, Sanxaya bobo, Norinjon bobo, Tojiniyoz bobo, Sharofat bobo, Latipboy bobo, Qabiljan bobo, Turdikesh bobo, G‘ani bobo, Sadaddin bobo, Umar bobo* kabi.

B) ba’zi nekrotoponimlar tarkibli antroponimlardan tashkil topadi: *Sulton-Uvays bobo* kabi.

V) diniy tushunchalar, savodli, ilmli odamlarni ifodalaydigan so‘zlar bilan birgalikda ishlatiladi:

1. Eshon: *Muso eshon bobo, Yoqub eshon bobo, Eroxun eshon bobo, Nurumbat eshon bobo* kabi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

1.1. Hoji eshon: *Hoji eshon bobo*.

1.3. So‘fi: *So‘fi eshon bobo*.

1.2. Millati + eshon: *No‘g‘ay eshon bobo*.

2. Shayx: *Shayx Jalil bobo*.

3. Oxun: *Oxun bobo*.

4. Pirga murid bo‘lish ma’nosini bildiradigan *qo‘l bergen* so‘zi: *Qo‘l bergen bobo*.

G. Insonning ijtimoiy holatini ifoadalaydi: *Musofirjon bobo, Miskin bobo* kabi.

D. Kasb-kor, lavozimini ifodalaydi: *Polvon bobo, Yuz boshi bobo, Xalfa bobo, Qulonchi bobo, Savatchi bobo* kabi.

2. Insonning jismoniy kamchiligini ifodalaydi: *Cho‘loq eshon bobo*.

3. Mahalliy joyning tabiiy relyefi shakllaridan birini olgan: *Jing‘illi bobo, Qumsangar bobo, Tosh to‘ba bobo, Sirsholi bobo* kabi.

4. Shahid so‘zi bilan: *Shiydon bobo*. Bu nom asli *shahidon* ya’ni *shahidlar* bo‘lishi mumkin. Og‘zaki so‘zlashuvdan so‘z shakli qisqargan bo‘lsa kerak.

Ko‘rinadiki, nekrotoponimlarga nom bo‘lgan so‘zlar birinchi navbatda antroponimlar bilan bog‘liq. Ular asosan shu yerlarda yashab, aholi orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan, ular orasida insonlarga ta’sir eta olish, ba’zan ularni davolash, tilaklarining amalga oshishiga yordamlashish orqali umumxalq e’tirofiga sazovor bo‘lgan kishilar nomiga qo‘yilgan. Shuningdek, ularning kasb-kori, faoliyatining barcha sohalarini, tevarak-atrofdagi narsalar hamda voqeа-hodisalarни qamrab olgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi nekrotoponimlarni chuqur o‘rganish xalqimizning o‘tmishi, tarixi, milliy o‘ziga xosligi, kasb-kori, tabiat, hayvonot dunyosini o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жанузаков Т. Орталық Қазақстан жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1989. – Б.175-176.
2. Yusupov S.S. “Ota” indikatorli nekrotoponimlarning grammatic xususiyatlari / “Turkiy xalqlar filologiyasining dolzarb masalalari: nazariya va innovatsion ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Nukus, 2023. – S. 87-91.
3. Turobov A.M. Samarqand etnonim va etnooykonimlari. – Samarqand, 2002. –S. 84.
4. Курбониязов Г.А. Қорақалпоғистондаги лисоний вазият. –Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2021. –S. 104.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
6. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.